

**MUSIQA DARSLARIDA CHOLG‘U ASBOBLARI VOSITASIDA  
BOLALARNI IJODIY TAFAKKURINI RIVOJLANTIRISHNING  
AHAMIYATI**

**Navoiy Davlat Pedagogika Instituti  
“Musiqqa ta’limi” kafedrasi o‘qituvchisi  
Umurzoqova Laylo Baxtiyor qizi**

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada musiqa darslarida cholg‘u asboblaridan foydalanish orqali bolalarda ijodiy tafakkurni rivojlantirishning ilmiy nazariy asoslariga oid mulohazalar tahlil qilingan

**Kalit so‘zlar:** Cholg‘u asboblari, musiqa, dars, ijodiy tafakkur, tarbiya, ta’lim.

**ВАЖНОСТЬ РАЗВИТИЯ ТВОРЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ ДЕТЕЙ С  
ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ ИНСТРУМЕНТОВ НА УРОКАХ МУЗЫКИ**

*Навоийский государственный педагогический институт  
Преподаватель кафедры «Музыкальное образование»  
Умурзокова Лайло Бахтиёр кизи*

**Аннотация:** В данной статье анализируются научно-теоретические основы развития творческого мышления детей посредством использования музыкальных инструментов на уроках музыки.

**Ключевые слова:** Музыкальные инструменты, музыка, урок, творческое мышление, воспитание, образование.

**THE IMPORTANCE OF DEVELOPING CHILDREN'S CREATIVE  
THINKING USING INSTRUMENTS IN MUSIC LESSONS**

**Navoi State Pedagogical Institute  
Teacher of the "Music Education" department  
Umurzokova Laylo Bakhtiyor kizi**

**Abstract:** This article analyzes the scientific theoretical basis of the development of creative thinking in children through the use of musical instruments in music lessons.

**Key words:** Musical instruments, music, lesson, creative thinking, upbringing, education.

O'zbek xalqining musiqa madaniyati juda uzoq tarixga ega. Taraqqiyot davomida xalq bastakorlik yo'llari, an'anaviy kasbiy musiqa, xalq mumtoz musiqasi, shuningdek, folklor - havaskorlik musiqiy merosi kabi shakli va uslubi bilan bir-biriga chambarchas bog'liq bo'lgan ijrochilik ko'rinishlari bir-birini to'ldirib keldi. Ana shu musiqiy merosimiz bugungi kunda ham ma'naviyatimiz ham madaniyatimizning bir jabhasi sifatida namoyon bo'lmoqda.

Keyingi to'rt-besh yil ichida bilan milliy-ma'naviy qadriyatlarimizga, urf-odatlarimizga, unutilayotgan qadrlil an'analarimizga bo'lgan e'tibor va ularni yangidan isloh etish jarayoni ustivor yo'nalish kasb etdi. Davlat miqyosida urf-odatlarimiz, milliy qadriyatlarimiz, ma'naviy boyligimizga bo'lgan hurmat va e'tibor ko'tarildi. Mustaqillikning dastlabki yillaridanoq, ajdodlarimizdan qolgan ma'naviy boyliklarni, xususan, musiqiy madaniyatni asrab avaylash, tiklash borasida, qolaversa, zamon bilan hamohang qadam tashlash borasida ko'pgina ishlar qilindi. Bu borada o'tgan ajdodlarimiz bizlarga meros qilib qoldirib ketgan ulkan ma'naviy boyligimiz asosiy omil bo'lib xizmat qilib kelmoqda.

Azaldan ma'lumki, ma'naviyatimizning asosiy bo'g'ini hisoblanib kelingan an'anaviy qo'shiqlarimiz, ashulalarimiz, musiqiy madaniyatimiz, maqom ijrolari har doim xalqimizning kundalik hayotida ma'naviy ozuqa sifatida e'tirof qilib kelingan. Xalq og'ir kunlarida musiqadan najot izlagan, xursandchilik kunlarida ham, to'y va marosimlarda qo'shiq va musiqa ularga hamroh bo'lgan. Zero, bugungi kunimizda ham o'zligimizni anglab borayotgan bir davrda ulkan ma'naviyatimizning bir bo'lagi bo'lgan, ajdodlarimizdan meros bo'lib kelgan milliy musiqiy madaniyatimizga suyanish, an'anaviy qo'shiqlarimizga murojaat qilish tabiiy bir holdir.

Bularning hammasi barkamol avlod tarbiyasida, yoshlarning ma'naviy dunyoqarashini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Ashula, musiqa, raqs, folklor ijrochiligi san'ati milliy musiqa san'atining xalq hayoti va ijodi bilan chambarchas bog'liq holda paydo bolgan va rivojlanib kelgan

qadimiy san'at turlaridan hisoblanadi. Ayniqsa, xalqimizning an'anaviy ruhdagi qo'shiqlari o'lmas meros bolib, barcha davrlardagidek bugun ham «labbay» deb javob bermoqda. Lekin shu bilan bir qatorda faqat tarixga qarab qolmasdan, bugungi kunning ruhiga mos tarzda qo'shiqlar yaratish esa milliy mafkuramizni rivojlantirishda bosh omillardan bolmish musiqiy san'at bilan shug'ullanayotgan barcha mutaxassis va san'atkorlarga muhim vazifa qilib qo'yilishi tabiiydir. Mamlakatimiz tamomila yangi jamiyat, yangi turmush va yangi hayotni boshlab yubordi. Insonlar qalbi, tafakkuri va tasavvurida o'zgarishlar paydo bo'ldi.

Musiqiy madaniyat o'zining serqirraligi bilan ajralib turadi. Ayniqsa, o'zining chuqur ildizlari qadimgi davrlarga yetib boradigan o'zbek xalqining boy musiqa merosi hozirgi kundalik hayotimizdan ham ketgani yo'q. U xalq ijodining yuksak namunalari, kuy tuzilishi, folklor ijrochiligi, mazmunan rivojlangan cholg'u va ashula asarlari, murakkab ijrochilik turkum atalmish maqom musiqasi hamda dostonlar ijrochiligini o'z ichiga oladi. Bundan tashqari, xalq musiqiy madaniyatida o'zlarining barcha davrlarda sezilarli hissalarini qo'shib kelayotgan xalq bastakorlarining ijodi ham salmoqli o'ringa ega.

Musiqa ellarni-ellarga, dillarni-dillarga bog'lovchi kishi estetik didini tarbiyalovchi hamda madaniy saviyasini oshiruvchi mo'jizaviy vositadir. Musiqa bu tarbiyaning eng faol turi hisoblanadi. Bola tug'ilgandan so'ng ilk bor ona allasini tinglab orom oladi. Ona allasiga vatanga muhabbat ona yurtiga sadoqat kabi buyuk insoniy his-tuyg'ular mujassamdir. Musiqa ta'limi va tarbiyasi o'quvchi yoshlarni komil inson qilib tarbiyalashda muhim o'rin tutadi. Musiqa ta'limi asosan musiqa va san'at maktablarida darslardan tashqari tashkil etilgan. Musiqa to'garaklarida o'rgatiladi. Komil inson tarbiyasida ana shunday musiqa va san'at maktablari va to'garaklarning o'rni va ahamiyati katta. O'quvchilarni san'at maktablariga jalb qilish ularning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil qilish samarali natijalar beradi. Tarbiya tizimi ta'lim tizimi bilan uzviy bog'liq. Tarbiyasi talab darajasida bo'lgan har qanday o'quvchi ta'limni juda yaxshi o'zlashtiradi. Shuning uchun komil inson tarbiyasida bu muhim ahamiyat kasb etadi.

Yosh avlodni yuksak madaniyatli estetik didi yuqori darajada rivojlangan komil insonlar qilib tarbiyalashda musiqiy ta'limning ahamiyati beqiyosdir. Xususan o'zbek musiqa san'ati bu borada katta imkoniyatlarga egadir. Ma'lumki o'quvchilarni musiqiy estetik ruhda tarbiyalash jarayoni birinchidan musiqa pedagogikasining asosiy umumiy tamoyillariga rioya etilishiga, ikkinchidan didni tarbiyalash bilan bog'liq bo'lgan maxsus shart-sharoitlarni ta'minlashga asoslanishi lozim. Musiqiy estetik didni shakllantirish jarayoni musiqani idrok etish qobiliyatini rivojlantirish bilan bevosita bog'liqdir. Bunda, eng avvalo, musiqiy idrokni ta'minlovchi tarkibiy qismlarini tamoyillarini tilga olish zarur bo'ladi. Ikkinchi tamoyil san'at pedagogikasi talablariga rioya qilishdan iborat bo'lib, u idrok etishdagi yaxlitlikni, obrazlilikni, xissiy va anglangan taassurotlar birligini va ularning o'zaro bog'liqligini ta'minlashdan iborat. Uchinchi tamoyil bola shaxsini rivojlantirishning tabiiy va madaniy jihatlarini birga qo'shib olib borish zarurligidir. Bu tamoyil boladagi tabiiy iste'dod, qobiliyatlar, xususiyatlardan musiqiy tarbiya jarayonida samarali foydalanishni, ularni tashqi pedagogik ta'sirlar yordamida yanada rivojlantirishni taqozo etadi. Albatta musiqiy estetik didni shakllantirish jarayoni musiqiy idrok etishning umumiy qonuniyatlari bilan bog'liqdir, lekin ayni paytda uning faqat o'zigagina xos bo'lgan xususiyatlarga ham egadir. Musiqiy estetik didni shakllantirish jarayoni ongli faol munosabat mavjud bo'lishi nazarda tutadi. Bu munosabat idrok etish jarayonini alohida (individual) estetik baho berish darajasigacha ko'tarilishi lozim. Shuning uchun ham kichik yoshdagi o'quvchilarning musiqiy estetik didini shakllantirishga bevosita bog'liq bo'lgan musiqa mashg'ulotlarida bolalarning bilish, his qilish faoliyatini kuchaytirish kerakki u umumiy va maxsus qobiliyatlarini rivojlantirishga va pedagogik ta'sir ko'rsatishni tashkil etish bosqichlariga bo'linadi. Pedagogik ta'sir ko'rsatishni tashkil etish bosqichiga musiqiy taassurotlarning to'planishi; o'quvchilarga turli xissiy holatlarni boshdan kechirishga imkon berish; xissiy musiqiy tasavvurlarga qaytilishi; «Tinglab tushunish» yoki «Ijro etib-tushunish» tajribasini boshqa asarlarga ham tatbiq etish jarayonini rag'batlantirish kabi shartlar kiradi. Kichik yoshdagi maktab

o'quvchilarning musiqiy qobiliyatini shakllantirish tamoyillari va harsaroitlariga muvofiq ravishda pedagogik ta'sir ko'rsatish usullarini aniqlashga harakat qildik. Chunki mashg'ulotlarning har bir turi muayyan pedagogik vazifalarini hal qilishga yordam beradi.

Biz mashg'ulotlarning quyidagi turlarini alohida ajratib ko'rsatmoqchimiz:

1. An'anaviy tur- bunda musiqiy faoliyatning barcha ma'lum turlaridan muayyan izchillikka foydalaniladi;
2. Ustun tur-uning tarkibida musiqiy faoliyat turlaridan biri ustivor o'rin tutadi.
3. Mavzuli tur- u tarkibidan muayyan mavzu tevaragidagi tashkil topadi.
4. Kompleks tur- xilma-xil san'at turlari materiallariga asoslansa ham muayyan mavzuni yoritishga qaratiladi.

Mashg'ulotlarning birinchi an'anaviy turi musiqiy faoliyatning har xil turlariga doir bir qancha vazifani bir vaqtda bajarishni nazarda tutadi. Lekin u hamisha ham o'qituvchiga musiqiy tarbiya va azifasini to'liq darajada hal qilish imkonini bermaydi. Ikkinchi ustun turdan bolalar musiqiy faoliyatining birir turidagi qoloqligini barham toptirishga foydalanadi. Mazkur mashg'ulot turlariga muvofiq ravishda to'rtta variant mavjud bo'lib, ularning har birida musiqa tinglash, qo'shiq aytish bolalarning musiqa asboblarini chalishi musiqaga jo'r bo'lib harakat qilishi ustunlik qiladi. Mashg'ulotlarning uchinchi mavzuli turi darsining barcha tarkibiy qismlariga yaxlitlik bag'ishlaydi. To'rtinchi kompleks tur esa darsining ijodiy imkoniyatlarini kengaytiradi, xissiy tahliliy tafakkurni rivojlantiradi.

#### **Adabiyotlar:**

1. Mirziyoev SH. M. "Yangi O'zbekistonda erkin va faravon yashaylik."  
T.: "Tasvir" nashriyot uyi 2021.
2. G. Sharipova va boshqalar. «Boshlang'ich sinflarda musiqa madaniyati darslari uchun metodik qo'llanma» T: Nizomiy nomli TDPU 2001-yil